



**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona
va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(2020- yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumot)

2020- yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2551,3** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **21,6** % ga oshdi.

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat
ko'rsatkichlarining o'zgarishi**

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Korxona va tashkilotlar soni
100,2 %



Xodimlar soni
101,2 %

Ish haqi fondi
123,0 %




O'rtacha ish haqi
121,6 %

Ma'lumot uchun: O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish
haqiga nisbatan o'zgarishi, % da**

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichidan sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati – **30,4** % ga, ta'lim sohasi - **22,9** % ga sezilarli darajada past bo'ldi. Shu bilan birga bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati - **113,7** % ga, axborot va aloqa sohasi - **62,2** % ga respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada yuqoriligi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm


(yanvar-iyun oylari uchun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Axborot va aloqa




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik




Ta'lim



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa iqtisodiy faoliyat turlari



Iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida 2019- yilning mos davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sishi kuzatildi. Ayniqsa bank, sug'urta, lizing va kredit-vositachilik faoliyatida - **33,4 %** ga, tashish va saqlash sohasida - **28,5 %** ga sezilarli o'sish kuzatildi.



Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Ta'lim sohasidagi hisoblangan o'rtacha ish haqi

1 966,8 ming so'm



Maktabgacha ta'lim sohasi

1 121,4 ming so'm



Umumiy o'rta ta'lim sohasi

2 030,2 ming so'm



O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi sohasi

1 695,7 ming so'm



Oliy ta'lim sohasi


4 139,8 ming so'm

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1966,8** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **17,0 %** ga oshgan.




“Ta’lim” iqtisodiy faoliyat turi bo’yicha o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo’jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Respublikadagi o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko’rsatkichlar Toshkent shahri - **139,6 %**, Sirdaryo viloyati - **102,0 %**, Toshkent viloyati - **100,2 %** va Qoraqalpog’iston Respublikasi – **100,2 %** hissasiga to’g’ri kelgan.



Shu bilan birga, 10 ta hududda ushbu sohadagi o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o’rtacha ko’rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.


Respublikadagi o’rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko’rsatkichlar Surxondaryo viloyati - **95,6 %**, Xorazm viloyati - **92,0 %**, Farg’ona viloyati - **90,9 %**, hamda Qashqadaryo viloyati - **88,7 %** hissasiga to’g’ri kelgan.



“Qurilish” iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm




Qurilish sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyati - **144,5 %**, Navoiy viloyati - **135,6 %**, Andijon viloyati - **126,9 %**, Toshkent viloyati - **123,4 %**, Namangan viloyati - **107,9 %**, Toshkent shahri - **104,5 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, respublikaning 8 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi – **82,3 %**, Qashqadaryo viloyati – **72,8 %**, Farg'ona viloyati - **71,3 %** va Jizzax viloyati - **39,9 %** hissasiga to'g'ri keldi.


O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm






“Savdo” iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Savdo sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo - **124,9 %**, Toshkent shahri - **112,5 %**, Navoiy **109,2 %** Jizzax - **105,2 %** va Toshkent – **103,0 %** viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.




Shu bilan birga, respublikaning 9 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Qashqadaryo viloyati - **84,5 %**, Namangan viloyati - **82,0 %**, Buxoro viloyati - **75,3 %** hamda Samarqand viloyati - **74,7 %** hissasiga to'g'ri keldi.




“Sanoat” iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Sanoat sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Navoiy viloyati - **132,7 %**, Toshkent shahri - **111,4 %**, Andijon - **108,2 %**, Qoraqalpog'iston Respublikasi - **108,2 %** va Toshkent - **100,4 %** viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Shu bilan birga, respublikaning 9 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika darajasidan past ekanligi kuzatildi.


Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Xorazm viloyati – **73,1 %**, Jizzax viloyati - **65,3 %**, Namangan viloyati - **62,6 %** hamda Sirdaryo viloyati - **61,6 %** hissasiga to'g'ri keldi.



“Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

O‘rtacha oylik ish haqi,
ming so‘m




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari Buxoro viloyati - **128,4 %**, Qoraqalpog‘iston Respublikasi - **111,6 %**, Toshkent shahri - **110,8 %**, Sirdaryo viloyati - **108,5 %**, Xorazm viloyati - **107,1 %** hamda Navoiy viloyati - **102,2 %** hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi respublikaning 6 ta hududida respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichidan past bo‘ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko‘rsatkichlari Jizzax viloyati - **97,6 %**, Toshkent viloyati - **96,6 %**, Samarqand viloyati - **95,5 %**, Farg‘ona viloyati - **92,8 %** hamda Qashqadaryo viloyati - **75,6 %**, hissasiga to‘g‘ri kelgan.




O‘rtacha oylik ish haqi,
ming so‘m






“Tashish va saqlash” iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Xorazm viloyatida - **126,8 %** Toshkent shahrida - **114,0 %**, Qoraqalpog'iston Respublikasida - **105,0 %** va Buxoro viloyatida – **104,4 %** kuzatildi.



Shu bilan bir qatorda, mamlakatning 10 ta hududida tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi respublika darajasidan past bo'ldi.


Tashish va saqlash sohasida respublika ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Toshkent viloyatida - **50,5 %**, Sirdaryo viloyatida - **49,3 %**, Jizzax viloyatida - **46,6 %** hamda Andijon viloyatida - **45,8 %** kuzatildi.



“Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik” iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida - **125,7 %**, Jizzax viloyatida – **101,6 %** ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi respublikaning 12 ta hududida respublika o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Samarqand - **75,5 %**, Namangan – **74,0 %**, Sirdaryo - **72,4 %** hamda Surxondaryo – **68,5 %** viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, % da


(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Respublika bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida **33,4 %** ga, tashish va saqlashda **28,5 %** ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **23,4 %** ga, qurilishda **21,9 %** ga, san'at, ko'ngil ochish va dam olishda **17,8 %** ga, sanoatda **17,4 %** ga, ta'lim sohasida **17,0 %** ga, savdoda **16,3 %** ga, axborot va aloqada **9,8 %** ga o'sganligi kuzatildi.



"Ta'lim" iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning aprel oyida **1785,0** ming so'mni, may oyida **1834,7** ming so'mni, iyun oyida esa **1916,8** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **17,0 %** ga o'sdi.



“Sanoat” iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning aprel oyida **3346,9** ming so'mni, may oyida **3759,3** ming so'mni, iyun oyida esa **3665,8** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.



“Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish” iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning aprel oyida **1696,6** ming so'mni, may oyida **1766,2** ming so'mni, iyun oyida esa **1760,4** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.



“Savdo” iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Savdo sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning aprel oyida **2334,3** ming so'mni, may oyida **2514,7** ming so'mni, iyun oyida esa **2406,7** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.



“Qurilish” iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning aprel oyida **3182,9** ming so'mni, may oyida **3313,8** ming so'mni, iyun oyida esa **3207,9** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.



“Bank, sug’urta, lizing, kredit va vositachilik” iqtisodiy faoliyat turi bo’yicha o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o’sish sur’atlari

(o’tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Bank, sug’urta, lizing, kredit va vositachilik sohasi bo’yicha o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko’rsatkichi joriy yilning aprel oyida **5189,2** ming so’mni, may oyida **6091,3** ming so’mni, iyun oyida esa **5145,6** ming so’mni tashkil etganligi kuzatildi.



“Tashish va saqlash” iqtisodiy faoliyat turi bo’yicha o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o’sish sur’atlari


(o’tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Tashish va saqlash sohasi bo’yicha o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko’rsatkichi joriy yilning aprel oyida **3264,5** ming so’mni, may oyida **3455,4** ming so’mni, iyun oyida esa **3392,5** ming so’mni tashkil etganligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, % da

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida **3637,7** ming so'mni, Navoiy viloyatida **3375,9** ming so'mni va Toshkent viloyatida **2695,8** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, Surxondaryo viloyatida **2093,2** ming so'mni, Jizzax viloyatida **2087,5** ming so'mni, Samarqand viloyatida **2043,5** ming so'mni, Namangan viloyatida **2043,1** ming so'mni va Qashqadaryo viloyatida **1992,5** ming so'mni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni tashkil etgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	yanvar-iyun 2019- yil	yanvar-iyun 2020- yil	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	2099,0	2551,3	121,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2013,2	2417,1	120,1
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1893,8	2376,7	125,5
Buxoro	1929,4	2421,3	125,5
Jizzax	1770,4	2087,5	117,9
Qashqadaryo	1768,8	1992,5	112,6
Navoiy	2680,6	3375,9	125,9
Namangan	1727,3	2043,1	118,3
Samarqand	1751,1	2043,5	116,7
Surxondaryo	1730,0	2093,2	121,0
Sirdaryo	1787,4	2180,1	122,0
Toshkent	2314,2	2695,8	116,5
Farg'ona	1722,4	2076,3	120,5
Xorazm	1776,0	2156,7	121,4
Toshkent sh.	2970,1	3637,7	122,5

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdorlari Toshkent shahrida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **142,6** % ni, Navoiy viloyatida **132,3** % ni va Toshkent viloyatida **105,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, Surxondaryo viloyatida **82,0** % ni, Jizzax viloyatida **81,8** % ni, Samarqand viloyatida **80,1** % ni, Namangan viloyatida **80,1** % ni va Qashqadaryo viloyatida **78,1** % ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020- yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlarito‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, 2020- yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 679 330 so‘mni tashkil etadi.

Ma‘lumot uchun: *"O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko‘rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.*

**Davlat statistika qo‘mitasining
Demografiya va mehnat statistikasi
boshqarmasi**

Tel: (71) 230-80-66, 230-81-26